



ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI FAOLIYATINING JAMIYAT VA DAVLAT BOSHQARUVIDAA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Erkinbayev Oybek Elmurod o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Icki Ishlar Vazirligi

Akademiyasi 2-o'quv kursi kursanti

Anontatsiya: *O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Organlarining davlat hayotidagi o'rni uni davlat boshqaruvidagi ahamiyati. IIO larining davlat va xalq manfaatlari yo'lidagi xizmati fuqarolarning huquq va erkinliklari qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, ularning tinchligini saqlashda halok bo'lgan xodimlar. IIO xodimlarining fidokorona xizmatlari muhokama qilinadi.*

Tayanch so'zlar: *Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, prinsip, vatanparvarlik, ma'naviyat, globallashuv, xalq manfaatlari, milliy istiqolol.*

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ОБЩЕСТВЕ И ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ

Эркинбаев Ойбек Элмурод угли

Курсант 2-курс Академии

Министерство внутренних дел

Республики Узбекистан

Анонтация: *Роль МВД в государственной жизни Республики Узбекистан в ее государственном управлении. Служба МВД в интересах государства и народа - это защита законных интересов прав и свобод граждан, работников, погибших при поддержке их мира. Будут обсуждаться бескорыстные услуги сотрудников МВД.*

Ключевые слова: *Правоприменение, принцип, патриотизм, духовность, глобализация, общественные интересы, национальная независимость.*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF THE ACTIVITIES OF MINORAL AFFAIRS EMPLOYEES IN SOCIETY AND PUBLIC ADMINISTRATION

Erkinbayev Oybek Elmurod o'g'li

Cadet 2-training course student

of the Academy Ministry of Internal

Affairs of the Republic of Uzbekistan

Anontation: *The role of the Interior Ministry in the state life of the Republic of Uzbekistan in its public administration. The service of the MIA in the interests of the state*



and the people is the protection of the legitimate interests of the rights and freedoms of citizens, the employees who died in the maintenance of their peace. The selfless services of MIA staff will be discussed.

Keywords: *Law enforcement, principle, patriotism, spirituality, globalization, public interests, national independence.*

Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasidagi eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham fuqarolarimizda bizga mutlaqo yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz taqdiri uchun ma'suliyat tuyg'usini mustahkamlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ko'rishimiz shart. Ana shu murakkab ishda armiya saflarida mardlik va matonat, vatanga va xalqqa sadoqat bilan qilish maktabini o'tagan navqiron o'g'lonlarimiz ishonchli tayanch va suyanch bo'lib xizmat qiladi.

Sh.Mirziyoyev [1]

Vatanparvarlik - bu ona zaminga muhabbat hamda sadoqatni ifodalaydigan uning uchun qayg'uradigan ummuminsoniy tuyg'ularning jamlanmasidir. Bu so'z har bir inson qalbining eng shirin mevasidir. Shuning uchun ham inson bu yorug' olamda hayotini totli, mazmun va mohiyat ila o'tkazadi. Qalbida ona zaminga, vatanga bo'lgan muhabbat, xalqning tinchligi uchun jon kuyarlik, millatning ertasini o'ylash, uning kelajagi haqida qayg'urish sizningcha vatanparvarlik emasmi! Albatta bu vatanparvarlik. O'zi unib o'sgan ona zaminni asrash uni ko'z qorachig'iday avaylash har bir er yigitning shonli va sharafli burchi bo'lishi lozim. Bugun shunday insonlar albatta biz bilan bir yurt, bir zaminda bizning osuda tunimizni tonglarga ulab, tinchligimizni asrab kunni-kun, tunni-tun demay el-u xalq orasida xizmat qilib kelmoqdalar. Ular o'zlari uchun sharafli deb bilgan kasbini va ishini, davlat va jamiyat oldidagi vazifalarini chin yurakdan bajarmoqdalar. Ularning xizmati doimo halol hamda savoblidir. Chunki dinimizda ham jamiyat rivoji, aholi farovonligi uchun qilingan zarra amal ham e'tirofsiz, mukofotsiz qolmaydi. Mukofoti ulug' va e'tiborga sazovor amallardan biri bu - Vatanni qo'riqlash, uni turli yomon kimsalarning yurt va kishilar tinchligiga solmoqchi bo'lgan raxnalaridan ogoh bo'lib turish va ularga qarshi turishdir. U xoh chegarada, xoh yurt ichida bo'lsin Vatanni va ushbu diyorda yashayotgan insonlar xotirjamligi yo'lida bedor bo'lgan kishi nazarda tutilmoqda. Ular vatani, xalqi, yurtining oldidagi qarzini uzmoqdalar.

Yurtimiz Mustaqillikacha va undan oldingi, sobiq ittifoq davri, o'tgan asrning 60-80 yillari ichki ishlar organlari xodimlari uchun tinch-osoyishta kechdi, deb bo'lmaydi. Ayniqsa, mustaqillik arafasida va istiqlolning dastlabki yillarida uyushgan jinoyatchilikning turli ko'rinishlari avj olganini katta avlod vakillari yaxshi eslaydi. O'sha davrlarda jinoyatchilikni jilovlash, jinoyat olami obro'dorlari va ularning hamtovoqlariga qarshi kurash chog'ida huquq-tartibot idoralari xodimlari ko'p bor o'limga tik borishdi hamda juda ko'plab qiyinchilik, tahdidlar va yo'qotishlarga duch



keldi. Mamlakat xavfsizligi shakllanayotgan armiya qo'liga edi. Davlat mustaqilligini ta'minlashda albatta ichki tahdidlarga qarshi kurashish, xalqning ichidagi provakatsion ig'vogar kishilarga qarshi kurashish va bunga barham berishday ma'suliyatli ish Ichki Ishlar Organlarining gardanida edi. Chunki o'sha davrlarda eskilik sarqiti haligacha davom etmoqda edi. Mamlakatda uyushgan jinoyatchilik, jinoiy guruhlar xalq orasida o'z ta'sirlarini o'tkazar edilar. Bu esa jinoyatchilik darajasi yuqori ekanligidan dalolat berar edi. Yuqoridagi jinoiy guruhlar zulimini amalda ko'rsatib, odamlarni tahlikaga solib qo'ygandi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan buyon ular bilan juda qattiq kurashlar bo'lmadi deysizmi! Bu qonli to'qnashuvlarda IIO larining mard, jasur xodimlari o'zlarining xalq, vatan oldidagi qasamyodiga sodiq qolgan holda mamlakat xavfsizligini ta'minlash, konstitutsiyaviz tuzumni himoya qilish, jamiyatning xavfsizligini ta'minlashda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni, ma'suliyatini chuqur anglagan holda burchlarini bajardilar. Lekin shuni ham alohida holda ta'kidlashimiz joizki bu vazifalarni bajarar ekan hatto o'z jonlarini ayamadilar. Jumladan:

1992-yilning 16-yanvari O'zbekiston Respublikasi Mustaqil davlat sifatida jahonga yuz tuta boshlaganiga to'rt yarim oy bo'lgan kunlarning birida Toshkent shahrida joylashgan „Talabalar shaharchasidagi ommaviy tartibsizliklar“ning vujudga kelishi;

1999-yil 16-fevral barchamizga tanish hamda qiziq bo'lgan „Fevral voqealari“ poytaxtdagi portlashlar;

1999-yil 30-martda Xorzam viloyatining Xazorasp tumanining „Sarimoy“ YPX maskanida jinoyatchilar bilan otishma yuz berib, bir guruh qurollangan shaxslar tomonidan „Toshkent-Urganch“ yo'nalishidagi avtobusning garovga olinishi;

1999-yil 15-noyabr kuni Toshkent viloyatining Yangiobod aholi punkti yaqinida joylashgan militsiya blok postiga hujum qilinganligi. Bu voqealardan ko'p o'tmay Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi qonli to'qnashuvlar;

2000-yilning iyul-avgust oylarida Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarining tog'li hududlariga jangarilarning bostirib kirishi o'nlab harbiylar, ichki ishlar organlari xodimlari va oddiy fuqarolarning halok bo'lishi;

2004-yil 30-mart. Qibray tumani hududidagi «Qoramurt» blok-postidagi terrorchilar tomonidan sodir etilgan portlash; [2]

2005-yil 13-may „Andijon voqealari“. Aynan o'sha xarakatlarda Ichki Ishlar Organlarining halok bo'lgan xodimlari haqida General-Polkovnik Zokirjon Almatov o'zning Kun.uz ga bergan interviyusida: „Adashmasam, militsiya va prokuratura xodimlaridan 34 nafari halok bo'lgandi. Tez yordam xodimlari otib tashlangan“, degan sobiq vazir.

Yuqorida keltirib o'tilgan barcha voqea-hodisalar, xunrezliklar yo'lida qancha insonlar jabr ko'rishdi. Kimdir ota-onasidan yana kimdir yaqinlaridan judo bo'ldi. Ushbu jinoyatchilik, qo'poruvchilikda qancha organ xodimlari jonlarini shu el-yurtning ertasi, kelajagi uchun jon fido qildilar. Ularning ortlaridan mushtipar onalari, tog'dek suyanchidan ayrilgan otalari, oilasining qalqonidan ayrilgan ayollari qon yig'lashdilar



axir! Yosh farzandlari yetim qolishdi, ular otalarisiz voyaga yetdilar. Ba'zilari hatto otalarini ko'rmasdan bu yorug' olam yuzini ko'rdilar. Ular mard, jasur otalari haqida faqatgina yaqinlarining eslashlari bilan ko'z oldiga keltira oladi xolos. Qani aytingchi farzand judosi, yaqin kishidan ayrilish bu qanchalik og'ir musibat sizningcha!

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning 14-sessiyasida halok bo'lgan xodimlarni shunday eslaydi: „ Biz barchamiz el-yurtimizning tinchligi yo'lida o'z xayotini bag'ishlagan militsiya xodimlarining xotirasi va ruhi oldida umrbod qarzdormiz. Bu fidoiy insonlarning Vatan oldidagi xizmatlari hech qachon unitilmaydi. Ularning oilasi farzandlari doimo xalqimiz davlatimiz e'tiborida bo'ladi.“ [3]

Bugungi kunda internet tarmoqlarida IIO xodimlarining faoliyatiga aloqador bo'lgan qisqa metrajli videolar juda ko'plab uchramoqda. Lekin ularning ko'pchiligida aynan xodimlarning sha'niga nisbatan, xizmat faoliyatini noto'g'ri talqin etib internet tarmoqlariga joylashtirmoqda. Aynan sodir etilgan voqea-hodisalarning to'liq tafsilotlari yoritilmay, xodimlarning faoliyatiga noto'g'ri baho berib, fuqarolar nazarida xodimlarga ishonchsizlikni uyg'otmoqdalar. Bundan tashqari ayrim qo'shtirnoq ichidagi shaxslar hamda o'zlarini blogerman degan ijtimoiy tarmoqlarning aktiv foydalanuvchilari o'zlarini obunachilarini ko'paytirish maqsadida xodimlarning qonuniy faoliyatiga aralashib ularni obro'sizlantirishmoqda. Xizmat faoliyatiga kirishgan har bir hodim o'z faoliyatini albatta qonun asosida olib boradi. Lekin yuqoridagi shaxslar tomonidan ular video tasvirga olinib dublajlar, ovozlar o'zgartirilgan yoki qasddan qoidabuzarlik, huquqbuzarlikni sodir etib shunday xunrezliklarni amalga oshirmoqdalar. Axir ular kunlarini tunlarga ulab o'z xizmat faoliyatlarini qonun, ichki nizomlar asosida tashkillashtirib olib bormoqdalar. Ular ham shu elning, xalqning farzandlari. Ular ham ushbu tizimga kasbiy imtihonlardan a'lo darajada o'tib hayotini shu el koriga tikkan insonlar. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda yoki fuqarolar tomonidan ularning faoliyatiga aralashish juda ko'p kuzatilmoqda. Bundan alohida hollarda mahalla profilaktika inspektorlari yoki yo'l xarakati xavfsizligi xodimlari, patrul-post xizmati xodimlarining qonuniy talablarini qasddan bajarmasdan, ularga soxta ma'lumotlarni taqdim etib, alohida tartibda ziddiyatlarda davlat organi xodimlarini, davlat vakillarining qonuniy talablariga bo'ysunmay qarshilik ko'rsatish, omma oldida ularni haqorat qilish yoki ularga kuch ishlatib tan jarohati yetkazib internet tarmoqlariga joylashtirmoqda. Qonun buzuvchi sodir etgan huquqbuzarligi yuzasidan qaysidir bir fuqaroning huquq va erkinliklarini cheklashi, zarar yetkazishi yoki davlat va jamiyatning ijtimoiy munosabatlariga jiddiy zarar keltirishi mumkin.

Agarda siz xodim faoliyatiga shubha bilan qarasangiz unda IIV ning ma'sul xodimlari tomonidan ommaviy axborot vositalariga bergan ma'lumotlariga e'tibor qaratishingizni so'ragan bo'lar edim:



10 oyda 25 nafar xodimimiz halok bo'ldi. Shundan 9 nafari yo'l-transport hodisasi oqibatida, 16 nafari xizmat vazifasini bajarish vaqtida vafot etgan. Ta'kidlanishicha, 2022 yilning 10 oyida ichki ishlar xodimlari 344 marta qarshilikka uchragan. Ichki Ishlar Vazirligi mansabdorlari ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida ma'lum qilingan. "10 oy davomida 344 ta holatda xizmat vazifasini o'tayotgan ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan fuqarolar tomonidan qarshilik ko'rsatilgan. 194 ta holatda 258 nafar fuqaroga nisbatan prokuratura organlari tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lib, sud hukmiga ko'ra javobgarlikka tortilgan. Ichki ishlar xodimlari orasida kundalik yoki tungi xizmat vazifasini bajarib kelayotgan xodimlarimizga qarshilik ko'rsatish oqibatida halok bo'lgan xodimlar ham bor. Shu yilning 10 oyi mobaynida 25 nafar xodimimiz to'g'ridan to'g'ri xizmat vazifasini bajarish vaqtida vafot etyapti. Shundan 9 nafari yo'l-transport hodisasi oqibatida, 16 nafari xizmat vazifasini bajarish vaqtida vafot etgan", deydi IIV departament boshlig'i o'rinbosari Hamza Muxsinov. Bundan bir yil oldin IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi boshlig'i [hozirgi kunda IIV Jamoat xavfsizligi departamenti o'rinbosari – Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati boshlig'i] Baxtiyor Berdialiyev Kun.uz'ga bergan intervyusida ichki ishlar xodimlariga qarshilik ko'rsatish va jarohat yetkazish holatlari yildan yilga ko'payayotganini aytgandi. "Tungi soat uchda, hammamiz uxlayotgan vaqtda ichki ishlar idorasiga "Erim ichib kelib meni uryapti, yordam beringlar", degan xabar tushadi. Endi ko'z oldingizga keltiring. Vaqt allamahal, profilaktika inspektori shu xabar asosida aytilgan manzilga boradi. To'g'ri, uning tabel quroli bordir, dubinkasi bordir, kishani bordir. Lekin oldinda uni nima kutayotganini bilmaydi. Bizning xatomiz ham – shu. Tungi vaqtda bunaqa chaqiruvlar juda ko'p. Odatda chaqiruv kelib tushgan profilaktika inspektorlari yonida yoshroq yordamchisi bilan yoki sherigi bilan chaqiruv kelib tushgan xonadonning eshigini taqillatadi. Ko'pincha bunday chaqiruvlarga boradigan xodimlar janjallashayotgan er-xotinni ajrataman-u qaytaman deb o'ylashadi. Lekin ortiga qaytmagan xodimlarimiz bor. Nogiron bo'lib qolganlari bor. Chunki ularni har doim ham bir xil holat kutib turmaydi. Pichoq yoki qurol bilan qurollangan zo'rovonga duch kelib qolishlari ham mumkin. Lekin profilaktika inspektorlari shunday paytda qochib ketdi degan gapni biror marta eshitganmisiz?" degandi o'shanda IIV mulozimi. Shuningdek, 284 nafar xodim turli darajada tan jarohati olib, aksariyati olgan tan jarohati oqibatida orttirilgan nogironlik holati yoki xizmatga yaroqsizligi sababli sog'lig'i holatiga ko'ra ichki ishlar organlaridan bo'shatilgan. Shu yilning 30 noyabr kuni Olmazorda profilaktika inspektori xizmat vazifasini bajarayotgan vaqtda o'ldirib ketilgandi. Voqea joyidan qochib ketgan, muqaddam bir necha marta sudlangan 30 yashar qotil shu kunning o'zida qo'lga olinib, prokuratura organlariga topshirilgan. Ushbu xolat bo'yicha, oilaviy mojaro tufayli G'alaba mahallasiga chaqirilgan profilaktika inspektori katta leytenant N. Bobomurotov mashinada o'tirgan vaqtda ayolning eri unga 2 marta pichoq uradi, xodim olgan jarohatlari natijasida halok bo'lgan. [4]



N.Bobomurotov kabi mard jasur xodimning vafoti yagona emas. Unga o'xshab qanchadan qancha xodimlar jinoyatchilikka qarshi kurashda hayotdan ko'z yumdilar. Shunday insonlardan biri Katta Leytenant G'ayratjon Toshmatov 1975-yilda Toshkent viloyati Toshkent tumanida tug'ilgan. Ichki Ishlar Organlarida faoliyatini 2003-yil Toshkent shahar Ichki Ishlar Bosh Boshqarmasida Jinoyat-qidiruv va Terorrizmga qarshi kurashish bo'limi tezkor vakili lovozimida boshlagan. 2008-yil 9-may kuni Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan „Diadora“ kafesi yonida ikki fuqaro o'zaro tortishib qolishi oqibatida bir-biriga tan jarohati yetkazadi. Xodim voqea joyiga yetib kelib bu janjalni tinchlantirish choralari ko'ra boshlaydi. Lekin qayerdandir paydo bo'lgan no'malum shaxs unga o'tkir tig'li jism bilan tan jarohati yetkazadi. Chap ko'kraginging orqa tomonidan olingan jarohati oqibatida Toshmatov G'ayratjon shifoxonada vafot etadi.

Leytenant Oybek To'raqulov 1982-yil 28-iyulda Andijon viloyati Asaka shahrida tug'ilgan. 2008-2010-yillarda Asaka shahar IIB da profilaktika inspektori lavozimida xizmat qilgan. 2010-yilda Paxtobod tuman IIB Huquqbuzarliklarni oldini olish bo'linmasi militsiya tayanch punktlari profilaktika inspektori lavozimida xizmat vazifasini bajarayotgan paytida no'malum shaxs tomonidan og'ir tan jarohati yetkazilishi natijasida 28 yoshida vafot etadi.

Leytenant Doniyor Ortiqov 1988-yil 13-martda Farg'ona viloyati Farg'ona tumanida tug'ilgan. 2014-yil Oltiariq tumani IIB ning Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmasida Ichki Ishlar Organlarining tayanch punktlari profilaktika inspektori lavozimidan xizmat faoliyatini boshlagan. Leytenant Doniyor Ortiqov 2017-yil 14-avgust kuni odatdagidek o'zining xizmat vazifasini bajarayotgan edi. Kutilmaganda u janjal chiqarib, pichoq bilan odamlarning hayotiga xavf solayotgan kimsaga duch keladi. Shuning uchun u janjalkashni tinchlantirish va qurolsizlantirish chorasini ko'rishga kirishdi. Bundan asabiylashib, ko'zi qonga to'lgan jinoyatchi payt poylab leytenantning ko'ksiga pichoqni urdi. 29 yoshli Doniyor Ortiqov voqea joyida og'ir tan jarohati oqibatida hayotdan ko'z yumdi. 2017-yil 23-oktabrdagi farmoniga binoan Doniyor Ortiqov vafotidan so'ng „Mardlik“ orderi bilan mukofotlandi.

Kichik Serjant Bahodir Mirzayev 1990-yil 22-aprelda Toshkent viloyati Angren shahrida tug'ilgan. 2011-yil Toshkent viloyati IIB patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash boshqarmasiga bo'ysunuvchi patrul-post xizmati batalyonida xizmat faoliyatini boshlagan. 2014-yil Toshkent viloyati Bo'ka tumani IIB avtotransport vositalari texnik holati, ulardan foydalanish qoidalarini va me'yorlariga amal qilishni nazorat qilish bo'linmasining ma'muriy huquqbuzarlik materiallarini ko'rib chiqish bo'yich katta inspektori lavozimiga tayinlangan. 2017-yil 19-may kuni tunda xizmat vazifasini bajarayotganda yuz bergan yo'l-transport hodisasi oqibatida hayotdan ko'z yumdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-oktabrdagi farmoniga binoan Bahodir Mirzayev vafotidan so'ng „Mardlik“ orderi bilan mukofotlandi[5]/

So'ngi yillarda yurtimizda sohaviy xizmatlar tubdan isloh qilinmoqda. Shu bilan birgalikda Ichki Ishlar sohasida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuni



aytishimiz joizki davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan boshqa sohalardagi kabi Ichki Ishlar Organlarida bir qancha huquqiy islohotlar o'tkazildi va bugungi kungacha davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvar kungi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarorida ichki ishlar organlarining xodimlari tomonidan aholining ishonchli himoyachisi sifatida xalqchil professional tuzilmaga aylantirish, ularning fuqarolar, jamoat tashkilotlari hamda keng jamoatchilik bilan yaqin hamkorligini belgilash bundan tashqari, o'zaro ishonch va hamjihatlik ruhida ishlashini, mahallalar, aholi turar joylarida hamda yurtimizda qonun ustuvorligini, tinchlik-osoyishtaligini ta'minlash maqsadi Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi qabul qilindi. Unda belgilanishicha, xizmat hamda xizmatdan tashqari faoliyatda xodimlarning odob-axloqi va intizomiga qo'yiladigan talablarini, rahbar va xodimlarning o'zaro munosabatlarini, shuningdek, ularga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llash masalalarini o'z ichiga oladi. Ushbu talablar asosida xodimlarning xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini his etgan holda amalga oshiradilar. Xodimlar chuqur mas'uliyat bilan hamda tashabbuskorlik bilan xizmat faoliyatiga yondashishi ko'zda tutilgan. Xodimlarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik va o'z kasbiga sadoqat tuyg'usini shakllantirish hamda sodir etilishi mumkin bo'lgan nojo'ya xatti-harakatlar, korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olishga, tarbiyaviy ahamiyatiga bog'liq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Ichki Ishlar Organlari davlat boshqaruvida hamda jamiyatning rivojida uning xavfsizligini ta'minlaydigan davlatning kuch tuzilmasi hisoblanadi. Uning faoliyatida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish hamda qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarni oldini olishdan iborat. Xodimlarimiz doimo o'z faoliyatlarini qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarini hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflik prinsipiga asoslangan tarzda amalga oshiradilar. Shunday ekan ayrim fuqarolar tomonidan xodimlarning faoliyatiga aralashish ularga qarshilik ko'rsatish, kuch ishlatish kabi holatlarni sodir etmasligi, ularni qonuniy bo'lgan talablarini bajarishi, albatta maqsadga muvofiqdir. Ular shu elning ertasi, kelajagi uchun qayg'uradigan, xalqimizning fidoiy, suyukli farzandlaridir. Ular siz-u biz kabi insonlar haqida qayg'uradilar. Shunday ekan o'z qarashlarimiz, fikr mulohazalarimizda ularning faoliyatiga noto'g'ri baho berishdan yiroq bo'laylik. Atrofimizda sodir bo'layotgan harakatlarga loqayd bo'lmaylik. Biz ham el manfaatlarini, yurt kelajagi, xalq farovonligi uchun jonkuyar kishilardan bo'lishimiz lozim. Ana shunda yurtimiz doimo rivojlanadi, millatimiz yuksaladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „Ortda qolgan tahlikali kunlar“ Zokirjon Almatov, Abdug'ofur Sattorov T.: „Niso Poligraf“, 2022 yil.-184 b.
2. „Qahramonlar mangu yashaydi“ Muhabbat Ibragimova, Shaxzoda Xudoyberdiyeva – T.: „Sharq“, 2004 yil.-128 b. Muallifdosh.
3. „Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Amir Temur harbiy san'atining tutgan o'rni“ – Iqtidorli kursantlar ilmiy maqollar to'plami / Ma'sul muharrir: R.A.Xatamov-T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2022 yil -118 b.
4. „Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish- oliy burchimiz“ O'quv qo'llanma / R.A.Xatamov, SH.O'.Mamadaliyev, A.K.Qodirov va b.sh – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2022 yil -129 b.
5. „Vatanparvarlik asoslari“ O'quv metodik qo'llanma / R.A.Xatamov, SH.O'.Mamadaliyev, R.U.Ernazarova va b.sh. Ma'sul muharrir O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi boshlig'i polkovnik R.A.Xatamov-T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. 2021 yil -75 b.
6. „Mard o'g'lonlar nomi barhayot“ [Matn]: Kitob-Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2018.-560 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvar „Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida“gi PQ-10-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi „Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida Ichki Ishlar Organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risidagi“ PF- 6196-sonli Farmoni
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-aprel kunidagi PQ-2883-sonli "Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-aprel kunidagi PF-5005-sonli "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning ma'suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
11. <https://kun.uz/uz/news/2022/05/14/andijon-voqealariga-17-yil-toldi>
12. Таштемиров А. А. Ахборот технологияларидан фойдаланиб содир этилган фирибгарликни фoш этишда тезкор ходимларнинг терговчи ва суриштирувчилар билан ҳамкорлигининг айрим жиҳатлари //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 156-164.



13. Таштемиров А. А. Техник криминалистик экспертиза-ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг асосий омили сифатида //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 12-19.

14. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

15. Тоштемиров А. А. Некоторые аспекты изучение модели управленческой деятельности в органах внутренних дел. – 2022.

16. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этилган фирибгарлик жиноятларига қарши курашиш самарадорлигига эришишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12 Special Issue. – С. 35-40.

17. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.

18. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

19. Таштемиров А. А. Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 10 Special Issue. – С. 42-48.

20. Таштемиров А. А. Йулларда ҳаракатланишни тартибга солишнинг ҳуқуқий жиҳатлари ва бу борада технологиянинг ахамияти //siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 111-115.